



**“Mintaqada yashil iqtisodiyotni
shakllantirishning tashkiliy
iqtisodiy mexanizmlari”
mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani**

**May 17-18, 2024
Urganch, O‘zbekiston**



AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarorida bayon qilingan vazifalarning amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakultetida 2024-yil 17-18-may kunlari “Mintaqada yashil iqtisodiyotni shakllantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tadi. Urganch davlat universiteti 2024-yil nomlanishiga oid davlat dasturi doirasida o‘tkaziladigan ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etishga taklif qiladi. Konferensiya materiallari maqolalar to‘plami shaklida nashr etilishi rejalashtirilgan.

Respublika konferensiyaning maqsadi: Mintaqada 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarga hissa qo‘shish nazarda tutilgan bo‘lib, konferensiyada erishilgan yangiliklarni ilm-fanga va o‘quv jarayoniga joriy etish bo‘yicha xulosa hamda takliflar tayyorlashdan iborat.

Respublika konferensiyaga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar qabul qilinadi:

- mintaqa iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishning metodologik asoslari;
- mintaqada yashil iqtisodiyotni shakllantirish omillari va mavjud shart-sharoitlari;
- mintaqada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribalari va innovatsion jihatlari;
- mintaqa iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot rivojlanishi holatining ekonometrik modellari;
- yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning strategiyalari va yo‘nalishlari.

Respublika konferensiyaning rasmiy tillari: o'zbek, rus, ingliz.

Anjumanga respublikamizning korxonalar va tashkilotlar ekspertlari, oliy ta'lim muassasalarining mahalliy professor-o'qituvchilari, maktab, texnikim va kollej o'qituvchilari, yosh olimlar, doktorantlar, tayanch doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar, ta'lim boshqaruvi organlari vakillari tomonidan taqdim etilgan maqolalar qabul qilinadi. Konferensiya materiallari elektron shaklda nashr etiladi.

Maqolalar 2024-yil 10-maygacha urgenchconference2024@gmail.com elektron manziliga va <https://t.me/urgenchconference2024> telegram kanaliga yuborilishi mumkin.

Konferensiya tashkiliy qo'mitasining manzili:

Urganch davlat universiteti, O'zbekiston Respublikasi, Urganch shahri, X.Olimjon ko'chasi, 14-uy (indeks 220100).

Tel.: (998 97) 791 71 42 (Madaminov Sardor Kadamovich)

Elektron pochta: urgenchconference2024@gmail.com

Telegram: <https://t.me/urgenchconference2024>

“Mintaqada yashil iqtisodiyotni shakllantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari” mavzusidagi respublika konferensiyasi uchun maqola taqdimoti:

Ariza shakli

Mintaqa _____
Muallif (hammuallif) _____
Ish joyi _____
Lavozim _____
Ilmiy daraja va ilmiy unvon _____
Maqola sarlavhasi _____
Konferensiya yo'nalishi _____
Aloqa telefon raqamlari _____
Elektron pochta manzili _____
Anjumanda ishtirok etish (oflayn/onlayn) _____



Maqolani rasmiylashtirish talablari:

Maqola annotatsiya, kalit soʻzlar va asosiy matndan (kirish, asosiy qism, natijalar va xulosa) iborat boʻlishi va quyidagi texnik talablarga muvofiq tayyorlanishi kerak:

- 3 tilda (oʻzbek, rus va ingliz) 5-7 qatorli konspekt berilishi;
- kalit soʻzlar 5-8 soʻzdan iborat boʻlishi;
- maqola matnining “Times New Roman” shrifti, 14 oʻlcham, kirill yoki lotin alifbosida yozilishi;
- qatorlar orasidagi masofa sahifaning chap tomonida 3 sm, yuqorida va pastda 2 sm, oʻng tomondan 1,5 sm qoldirib, 1,5 oraliq boʻlishi;
- foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida foydalanilgan manbalar ketma-ketligida tuzilishi, adabiyotlardan iqtiboslar foydalanilgan adabiyotlar sonini kvadrat qavs ichiga qoʻyilishi, masalan: [2] yoki [2, 28 c] kabi avtomatik ravishda berilishi (iqtiboslar qabul qilinmaydi);
- maqolaning umumiy hajmi 3 betdan kam va 5 betdan oshmasligi;
- maqoladagi gʻoyalarning jadval yoki rasm koʻrinishidagi dalillar bilan tasdiqlanishi;
- jadvallarning sarlavhalari ularning yuqori qismida, chizmalarning sarlavhalari yoki chizmalarning pastki qismida ularning manbasini aniq koʻrsatgan holda yozilishi;
- maqolalarning oʻzbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi;
- maqolaning mazmuni konferensiya maqsadi va uning yoʻnalishlariga muvofiq, tahlil va dalillarga asoslangan holda yozilishi.

Maqola matni va ariza (sahifalarsiz) 2024-yil 10-maygacha urgenchconference2024@gmail.com elektron manziliga va <https://t.me/urgenchconference2024> telegram manziliga yuborilishi mumkin.

Maqolada hammualliflar soni 2 tadan oshmasligi kerak.

Har bir muallifdan faqat bitta maqola qabul qilinadi.

Maqolalarning toʻlov badali har bir beti uchun **30 000 soʻm** toʻlanadi.

Karta raqami: **9860 6004 1305 8741**. Shu karta raqamiga betlar hajmiga muvofiq toʻlov badali qilinib, koʻrsatilgan manzilga screenshot yuborilishi lozim.

Eslatma! Maqola matni tahrir qilinishi mumkin emas va original deb hisoblanadi. Maqolalar plagiatga qarshi tizim orqali tekshiriladi. Maqolada keltirilgan maʼlumotlarning toʻgʻriligi uchun muallif shaxsan javobgardir. Taʼkidlash joizki, taqdim etilgan maqolalar yuqoridagi talablarga toʻliq mos ravishda tayyorlangan boʻlishi kerak.

Yuqoridagi talablar asosida tayyorlanmagan, konferensiya maqsad va yoʻnalishlariga mos kelmaydigan maqolalar koʻrib chiqilmaydi, ekspertizadan oʻtmagan maqolalar nashr etilmaydi, toʻplamga kiritilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.